

MAQOMNING ASHULA YO‘LLARI VA ULARNING TARKIBI XUSUSIDA

Makhfuza Karimova

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

“Maqom xonandaligi” kafedrasida professori v.b.

Annotatsiya. Har bir maqomda ashula yo‘li Saraxborlardan boshlanib, uning Taronalariga, so‘ng suporish vositasi bilan Talqinga, keyin yana suporish Nasrlarga, ularning Taronalaridan so‘ng Ufarlarga ko‘chib, ashula turkumi bir butun holda yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: maqom, tarona, suporish, talqin, parda, usul, kuy shakli.

Аннотация: В каждом статусе путь макома начинается с Сарахборов, переходит к его Таронам, через Супориш к Талкину, снова через Супориш к Насру, после их Тарон к Уфарам, и ряд песни завершается в целом.

Ключевые слова: маком, тарона, супориш, талкин, парда, метод, форма музыки.

Annotation: In each maqom the path of the poem begins with the Sarahbors, moves to their Tarons, through the Suporis to the Talqins, through the Suporis to the Nasr and after their Tarons to the Ufars and the maqom series ends as a whole.

Keas words: maqom, tarona, suporish, talqin, parda, method, form of music.

Har bir maqomda ashula yo‘li Saraxborlardan boshlanib, uning Taronalariga, so‘ng suporish vositasi bilan Talqinga, keyin yana suporish Nasrlarga, ularning Taronalaridan so‘ng Ufarlarga ko‘chib, ashula turkumi bir butun holda yakunlanadi.

Oxiri harakat Saraxborlarga topshiriladi, ularga suporish qilinadi: Suporishi Buzruk, Suporishi Rost, Suporishi Navo, Suporishi Dugoh, Suporishi Segoh, Suporishi Iroq. Shu tariqa Shashmaqom ashula bo‘limining birinchi qismiga kirgan sho‘balar birin-ketin, uzluksiz ravishda ijro etiladigan butun bir turkumni tashkil etadi. Bu sho‘balar Ufarlar va Suporishlar bilan tugallanadi[1].

Shashmaqom ashula bo‘limining 2-qismiga boshqa shakl sho‘balar kiradi.

Taronalar parda, usul, she‘r va kuy shakli hamda uslubi jihatidan boshqa qismlardan yaqqol ajralib turadi. Ma‘lum darajada Taronalar Saraxbor, Talqin, Nasr va Ufarlarga muqobil tarzdagi shakl bo‘lib, ular turkum tarkibida bilvosita bog‘lanuvchi katta qismlar orasidagi jajji lavhalardir. Ular falsafiy Sarahbor va tanimaqom, lirik talqin, Nasr yo‘llari va o‘ynoqi Ufarlarning oralarini ko‘ngilochar kayfiyat bilan to‘ldirib turuvchi ko‘prik, derijyor, dispetcher bo‘lib xizmat qiladi. Shu asnodan o‘ta qiziq, tinglovchini zeriktirmaydigan yaxlit turkum shakllanadi. Tarona

(3rd international scientific and practical conference)

butun maqom turkumi kontekstida ko‘pincha “miniatyura”ga qiyos qilinadi. Maqom Taronalarining matni sifatida Umar Hayyom, Pahlavon Maxmud, boshqa shoirlarning mumtoz ruboiylari, xalq og‘zaki ijodi namunalariga mansub to‘rtliklar ishlatiladi. Bunday kuy – yo‘li va she‘r matnining mushtarak birligini nazarda tutuvchi “Taronalar” nomi bilan yuritiladi. Ayrim hollarda Taronalar g‘azallarning bir-ikki ommaviylashib ketgan baytlari bilan ham aytiladi. Xorazm maqomlari va Buxoro Shashmaqomida sozanda va hofizlarning o‘zlari tomonidan yaratilgan hamda aytilaverib xalq mulkiga aylanib ketgan bunday matnlar ko‘p.

Taronalarning asosiy qismlarga ergashib kelishi hamda kuy holatlari aksil muvozanatda – qarama-qarshi xarakterda bo‘lishi munosabati bilan tayanch qism va uning Taronalari umumlashib, bir to‘dani tashkil qiladi. Maqom amaliyotida bu birlik lad asosini hisobga olgan holda sho‘ba deb yuritiladi[2].

Taronalarning shakl tuzilishi masalalari haqida gap ketganda, ularning eng avvalo nazarga tashlanuvchi ikki xususiyati haqida gapirib o‘tish joiz. Birinchisi, izchil, uzluksiz kuy harakatiga xos asosiy tayanch qismlardan farqli o‘laroq Taronalarda bandlash tartibidagi shakllanish uslubi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Asosiylarda namud, miyonxat, furovard, dunasr, avjlar va so‘nggi furovarddan iborat kuy shaklida boshlang‘ich pardadan avj cho‘qqilarigacha va yana dastlabki (pastki) nuqtaga qaytuvchi uzluksiz harakat, doimiy yangilanish bosh va asosiy tamoyil bo‘lib maydonga chiqadi. Ergashgan Taronalarda kuy jumllarini ketma-ket takrorlash yoki biron yangi banddan keyin yana qayd etish yetakchi o‘rinda turadi. Shunga ko‘ra asosiy qismlarda yangilash, Taronalarda esa unga muqobil bandlash tamoyillari shakl tuzilishining o‘ziga xosligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Taronalarning ikkinchi xususiyati birinchisidan kelib chiqadi. Ularda Saraxbor, Talqin, Nasr shakllaridagi xatlar kuy-she‘r muvozanatidan boshqacharoq namoyon bo‘ladi, xatlardan farqli ravishda bandlarda she‘r misralari kuy tuzilmalariga qarab o‘zgarib ketadi. Bu o‘zgarishlar qo‘shilish yoki bo‘linish natijasi bo‘lishi mumkin, kuyning tugal jumllariga bir-ikki qator she‘r yoki yarim-chorak misra to‘g‘ri keladi.

Agar ashula bo‘limlarining asosiy o‘zak doirasiga kiruvchi barcha qismlarini umumlashtirib, yaxlit shakl deb oladigan bo‘lsak, Savt, Mo‘g‘ilcha toifa asarlarni unga nisbatan qo‘shimcha o‘rnida ko‘rish mumkin. Savt, Mo‘g‘ilchalar maqom turkumidan tashqarida turadi. Buning shakl jihatidan ham ma‘lum sababi mavjud. Asosiy doiradagi to‘rtta unsur(toifa): Saraxbor yoki tanimaqom, Talqin-Nasr, Ufar, Taronalarning shakllanishi o‘ziga xos qonunga ega. Savt hamda Mo‘g‘ilchalarda ushbu xususiyatlar erkinlashib ketgan. Saraxbor, Talqin, Ufar, Taronalarda uslubiy chegaralanishda qat‘iylik sezilsa, Savt va Mo‘g‘ilchalarda, aksincha, chatishgan holatlarni kuzatamiz. Ustoz san‘atkorlar tomonidan qo‘shimcha qismlarni ongli ravishda alohida toifaga ajratilishining boisi ham shu[3].

Savt mumtoz musiqa amaliyotida oldindan qo‘llanib kelinayotgan ibora.

(3rd international scientific and practical conference)

Marog'iyda Savt murakkab amalga qaraganda oddiy qo'shiq deya ta'rif berilgan. Amal – muayyan parda hamda vazn tizimlariga asoslanib, ularning rivojlangan, ya'ni miyonxat, tasviya, aniqrog'i, ashula bo'laklari orasidagi cholg'u mashqlari bozgo'y, furovard va dunasrga o'xshash kuy bo'laklaridan iborat shaklni bildiradi. Savt esa unga muqobil ravishda dastlabki kuy jumlasini yangi she'r bandlari bilan takrorlanish yo'lini anglatadi. Savtlar qo'shiqchanligining sababi ham shunda. Lekin Savt, Mo'g'ilcha va ularga ergashgan Talqincha, Chapandoz, Qashqarcha, Soqiynoma hamda Ufarlarning kuy tuzilishini naqoratlardan tarkib topgan oddiy qo'shiqqa tenglab bo'lmaydi. Chunki ularda maqomlarga xos izchil rivojlanish tamoyillari qo'shiqchanlikka aralashgan holda keladi. Ya'ni ularning tuzilishida miyonxat, furovard, dunasr, avj bilan birga qo'shiqlardagidek band va naqoratlar uchraydi. Shashmaqomdagi Mo'g'ilcha – “Aylansun quling” nomidanoq maqom va qo'shiqchilik tamoyillari tutashganligi seziladi. Qizig'i, asar nomi naqoratdagi so'zdan olingan. “Aylansun quling” Mo'g'ilchaga xos o'rta bo'g'inlar, miyonxat, furovard, belgili avjlarni o'z ichiga oladi, shu jihatlari bilan u maqom tizimiga oid shakldagi ashula ekanligiga shubha qoldirmaydi.

Chambari Iroq “guldasta”, Shashmaqom turkumi “go'zal maqom sho'balari guldastasi”. Ustozimiz Yunus Rajabiy ta'kidlagandek, “Maqomlar rivojlanish jarayonida shaklan va mazmunan o'zgarib borgan. Davr o'tishi bilan qanchadan-qancha bastakorlar, xonanda va sozandalarning jon kuydirib izlanishlari, sayqal berishlari natijasida maqom yo'llari mukammallashib, yaxlitlashib keldi. O'zbek maqomlari asrlar mobaynida shunday ulkan, o'ta qudratli va ta'sirchan musiqa merosi bo'lib, u hamisha o'z ijodkori – o'zbek xalqi bilan birga bo'ladi, shu xalq hayotining oynasi, xalq dilining ifodasi va akssadosi bo'lib qoladi”[4].

Adabiyotlar

1. Rajabov I. Maqom asoslari. T. 1992.
2. Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi. 2-qism. T. 2000.
3. Matyoqubov O. Maqomot. Musiqa. T. 2004.
4. Кароматов Ф., Эльснер Ю. Макамы. М. 1984.